



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 8-noyabr

628-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-150-sonli qaroriga “Vatan tayanchi” harakati faoliyatida faol ishtirok etgan iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2024-yil 25-oktabrdagi PQ-369-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 30-oktabrdagi 517-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi to‘g‘risida**

“Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini yanada kengaytirish, unda faol ishtirok etgan hamda davlat umumta’lim maktablarini a’lo baholar bilan tamomlagan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish, shu to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PQ-369-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 30-oktabrdagi 517-6-0-Q/24-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-150-son qaroriga “Vatan tayanchi” harakati faoliyatida faol ishtirok etgan iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”

2024-yil 25-oktabrdagi PQ-369-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 30-oktabrdagi 517-6-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-150-son qaroriga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalarkiritilganligi e’tiborga olinsin:

“Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar hamda maktab- internatlarda ham yo‘lga qo‘yish;

“Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatida faol ishtirok etgan hamda davlat umumta’lim maktablarini a’lo baholar bilan tamomlaganhar bir “Vatan tayanchi”

otryadining bir nafar a'zosiga Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning oliy harbiy ta'lim muassasalariga hamda oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma berish tizimini joriy etish;

Xalq ta'limi vazirligi negizida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etilganligi munosabati bilan qonunchilik hujjatlarini o'zaro muvofiqlashtirish.

3. Tuman Mudofaa ishlari bo'limi (R.Salimgariyev) tumandagi tegishli tashkilot, muassasa hamda idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PQ-318-sonli qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**